



**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti
"Mineral resurslar instituti" DM**

**"Mineral resurslar instituti" DM direktorining Institut xodimlariga
Murojaati**

Olam yaralibdiki odam ato va momo havo farzandlari orasida bo'lgani kabi sovuqchilik hozirgi kunga qadar insonlarni **ikki toifaga** bo'lib ajratib kelmoqda. Inson taraqqiyoti **nurga qiyoslanadi**. Nur bor joyda albatta soya bo'ladi.

Bekorga ilm-ma'rifatni nurga, jaholatni esa zulmatga, insonlarni haloqatga boshlaydigan qorong'u chohga kiyoslashmaydi. Tarixdan ma'lumki **korruptsiyaning paydo bo'lishi insoniyatning uzoq o'tmishiga borib taqaladi**. Jaholat o'sha zamondan erkin, hayotni tasdiqlovchi **ijodkorlikni buzuvchi hodisa** sifatida ko'ringan. **Jaholat** – bilmsizlik, qoloqlik, madaniyat etishmasligi, boshqa so'zlashuv ma'nosida – **yomon xulq, odobsizlik**.

Korruptsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng barqaror yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Buni so'nggi vaqt sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korruptsiyani aniqlashga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

Yurtboshimiz ta'kidlagandek "Jaholatga qarshi - ma'rifat"ni qurol qilgan ajdodlarimiz bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy meros o'ziga hos najot qal'asi, himoya qurgoni vazifasini o'tadi. **Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan "Inson qadri uchun"** davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ya'ni inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida jamiyat hayotining barcha jabhalarida, soha va yo'nalishlarda **korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda**.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatda bo'lish **Institut tizimida faoliyat olib borayotgan har bir rahbardan tortib oddiy ishchi xodimning kundalik hayot tarziga aylanishi kerak.**

Hurmatli Prezidentimizning ta'kidlagandek, "Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish har bir sof vijdonli inson, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir".

Halollik, vatanparvarlik va shaxsiy mas'uliyatni o'z faoliyatining asosiy qoidasiga aylantirgan holda, berilgan barcha vazifa va topshiriqlarni vijdonan, xolis va yuksak professional darajada amalga oshirish hayot tarzimizga aylanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, **"Mineral resurslar instituti" DM korrupsiyaning oldini olish choralari ko'rish**, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va sharoitlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ma'sul idoralar bilan **hamkorlikda samarali tizim bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda.**

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, uning oldini olish va bartaraf etish, xaridlarni amalga oshirishda, xodimlarni tanlash va yuqori lavozimlarga tayinlashda, Institut moliya xo'jalik faoliyatining ochiqlik va shaffofligini ta'minlash, ushbu jarayonlarga ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional bazasini muntazam takomillashtirish, rahbarlarining va barcha xodimlarining asosiy maqsadi sifatida belgilangan.

Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan aniq va tizimli chora-tadbirlar belgilab olindi, ularning ijrosini ta'minlash alohida va tizimli nazoratga olish tartibi joriy etildi. Institutda korrupsiyaning oldini olish choralari ko'rish, uning kelib chiqish sabab va sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etish borasidagi ishlar kelgusida ham izchillik bilan davom etmoqda.

Mineral resurslar instituti tizimida mehnat qilayotgan **har bir rahbar va xodimni** korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat va lavozim vazifa va burchini vatanga sadoqat bilan, halol va holis bajarishi kerak.

Mustahkam **ma'naviy immunitetli**, shaxsiy fikrga ega, **yuqori marra**larni zabt etuvshi kelajak avlodni tarbiyalash, ona yurti sevuvchi, yot va begona ta'sirlardan, ba'lo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tamonlama ravnaq topishga qodir bo'lgan milliy qadriyat, milliy ong va tafakkur nima ekanligini tushunib etgan, dinga va ananalarga sodiq, jaholatga doimo o'z ilmi va komilligi bilan keskin javob bera oladigan davlat xodimi hech qachon jaholatga botmaydi.

Joriy yilda **"Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi"**ni **"ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti"** xalqaro standarti talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha ikkita xodimimiz Xalqaro sertifikatga ega bo'lgan.

Institut xodimlarining korrupsiya va korrupsiyaga oid boshqa huquqbuzarlik holatlariga aloqadorligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lgan fuqarolar va xodimlar o'z murojaatlarini to'g'ridan-to'g'ri Institut direktori yoki Komplaens-nazorat xizmatining 71-209-08-95, (5020) telefon raqamlariga yo'llashlari mumkin.